




BUXORO VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI



BUXORO VILOYATIDA O'RTA-MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



O'zbekiston Respublikasida o'rtta maxsus professional ta'lim tizimi

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rtta va o'rtta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2020/2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rtta va o'rtta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Ma'lumot uchun: Milliy ta'lim tizimlarining tuzilishi va ta'lim dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash solishtirish va ularning milliy va xalqaro miqyosdagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lim tizimlarining jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat - Ta'limning Xalqaro Standart Klassifikatsiyasidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011- yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36-sessiyasida qabul qilingan. Dastlab YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lim statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimidagi yangiliklarni yanada aniqroq aks ettirish uchun vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi.

O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, professional ta'limi tizimi

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim

**Boshlang'ich
professional ta'lim**



**O'rta professional
ta'lim**



**O'rta maxsus
professional ta'lim**



Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.


O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

BUXORO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Akademik litseylar soni, birlikda


(2022/2023 o'quv yili boshiga)

Ma'lumot uchun: O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.



Hududlar kesimida akademik litseylar soni, birlikda


(2022/2023 o'quv yili boshiga)



BUXORO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni

(2022/2023 o'quv yili boshiga, ming kishi)



Akademik litsey o'quvchilarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, kishi

(2022/2023 o'quv yili boshiga)



Buxoro viloyatida 2022/2023 o'quv yili boshida akademik litseylarda jami **1,7** ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

BUXORO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Agar akademik litseylardagi barcha o'quvchilarni 100 foiz deb olinsa, ularning **39,4 %** qizlar, **60,6%** ini o'g'il bolalar tashkil etadi.


O'g'il
bolalar
60,6 %

Qiz bolalar
39,4 %



Akademik litsey o'quvchilarining hududlar bo'yicha gender taqsimoti, kishi

(2022/2023 o'quv yili boshiga)






BUXORO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Akademik litsey o'qituvchilari, kishi

(2022/2023 o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha

Buxoro Viloyati




2021/2022- y.
2022/2023- y.

BUXORO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Ma'lumot uchun: Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

Kasb-hunar maktablari soni, birlikda



Kasb-hunar maktablarini hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda

(2022/2023 o'quv yili boshiga)




2022/2023 o'quv yili boshida Buxoro viloyatida **20** ta kasb-hunar maktablari mavjud bo'lib, ularning eng ko'p soni G'ijduvon tumanida (**3** ta) qayd etilgan.

BUXORO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning taqsimlanishi, ming kishi


(2022/2023 o'quv yili boshida)

Hududlar bo'yicha



Buxoro Viloyatida

11,0



2022/2023 o'quv yili boshida kasb-hunar ta'limi muassasalarida **11,0** ming o'quvchi tahsil olmoqda. Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich G'ijduvon tumanida – **1,8** ming nafar, eng kami Kogon tumanida – **0,4** ming nafar.


BUXORO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Agar kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi barcha o'quvchilar **100** foiz deb olinsa, ularning **24,2** foizini qizlar, **75,8** foizini o'g'il bolalar tashkil etadi.



Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining hududlar bo'yicha gender taqsimoti, ming kishi

(2022/2023 o'quv yili boshida)





BUXORO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kasb-hunar maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, kishi

(2022/2023 o'quv yili boshida, (o'rindoshlarsiz))

Buxoro Viloyati



2022- yilda kasb-hunar maktablarida dars beradigan o'qituvchilar soni 2021- yilga nisbatan **202** nafarga yoki **30 %** ga ko'payib, **865** nafarni tashkil etdi.


Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Peshku tumanida – **118** nafar, eng kami – Qorovulbozor tumanida – **17** kishi qayd etilgan.

BUXORO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Kollejlar soni, birlikda

(2022/2023 o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha



Buxoro viloyati




2022/2023 o'quv yili boshida Buxoro Viloyatida **13** ta kollej mavjud bo'lib, hududlar bo'yicha eng ko'pi Buxoro shahrida (5 birlik), eng kami Kogon shahrida (1 birlik) qayd etilgan.



BUXORO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kollej o'quvchilarining taqsimlanishi, ming kishi (2022/2023 o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha



Buxoro viloyati




2022/2023 o'quv yili boshida Buxoro viloyatidagi **13** ta kollejda **6,8** ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich G'ijduvon tumanida (**2,2** ming o'quvchi), eng kam ko'rsatkich Kogon shahrida (**0,1** ming kishi) qayd etilgan.

BUXORO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kollej o'qituvchilarining taqsimlanishi, kishi


(2022/2023 o'quv yili boshida)

Hududlar bo'yicha



■ 2021/2022 ■ 2022/2023

Buxoro viloyati




2022/2023 o'quv yili boshida kollejlarda **257** nafar (o'rindoshlarsiz) o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich 2020- yilga nisbatan (2020- yilda – **254** nafar) 3 nafarga ko'paygan.

BUXORO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Texnikumlarni hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda

(2022/2023 o'quv yili boshiga)

Buxoro viloyati



Buxoro viloyatida 2022/2023 o'quv yili boshida texnikumlar soni **13** tani tashkil etdi, 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan **2** taga ko'paydi.



2022/2023


2021/2022

BUXORO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Texnikum talabalarining taqsimlanishi, ming kishi

(2022/2023 o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha



Buxoro viloyati




2022/2023 o'quv yili boshiga Buxoro viloyatidagi texnikumlarda **7,6** ming talaba tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Buxoro shahrida (**3,4 ming**), eng past ko'rsatkich Vobkent tumanida (**0,1 ming**) qayd etilgan.).

BUXORO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Texnikum o'qituvchilari soni, kishi

(2022/2023 o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha



Buxoro viloyati



2022/2023 o'quv yili boshida texnikumlarda **299** nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan, bu o'tgan o'quv yiliga (**269** nafar) nisbatan **30** taga ko'pdir. Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Buxoro shahrida – **120** nafar, eng kami – G'ijduvon tumanida – **11** nafar qayd etildi.

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi – boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlardan iborat bo'ladi.

Akademik litsey – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Professional ta'lim – ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi.

Kasb-hunar maktabi – Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Kollejlari – Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Texnikumlari – Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.